

ABDULLA AVLONIY HAYOTI VA IJODINI METODIK JIHATDAN YORITISH ILLUMINATION OF ABDULLA AVLONI'S LIFE AND CREATION FROM A METHODOLOGICAL POINT OF VIEW

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Jorayev Oybek Sherali ogli

TDPU named after Nizami, Uzbek language and

literature department 3rd grade student

Absrtract. This article provides information about the use of interactive methods in studying the life and work of the writer Abdulla Avlani and the methods that the teacher should use when introducing students to the works of representatives of modern literature.

Keywords. President, textbook, Abdulla Avlani, interactive methods, lesson, story, student, teacher.

“Men nima uchun o'qituvchining jamiyatdagi obro'si va mavqeini oshirish kerak, deb ko'p gapiraman. Chunki bolalarimiz qalbining chinakam me'mori, muhandisi o'qituvchilardir” [2]. Darhaqiqat, ta'limsiz taraqqiyot bo'lmaydi. Yoshlarga sifatli ta'lim berish esa o'qituvchilar qo'lidadir. Bugungi kunda prezidentimiz tomonidan ta'limga qaratilgan ishlar taxsinga sazovordir. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning yetarlicha bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun yetarlicha jihozlar bilan ta'minlanishi, zamonaviy resuslarga ega bo'lishlari uchun juda katta moliyaviy mablag'lar ajratilyotganligi yurtboshimizning e'tiboridan dalolat beradi.

Hozirgi kunda prezidentimiz tomonidan darsliklar sifatini yaxshilash va ularni jahon standartlari talabiga javob beradigan darsliklar shakllantirish bo'yicha tegishli idoralarga topshiriqlar berilgan. Shuningdek, adabiyot fanini o'qitish, mavzularga metodik jihatdan yondashish adabiyotchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Maktabda o'quvchilarga jadid namoyondalarining hayoti va ijodini kengroq tushuntirish va chuqurroq o'rgatish har qachongidan muhimdir. 5-sinf adabiyot darsligida Abdulla Avloniy hayoti va ijodi berilgan.

Abdulla Avloniy hayotini «aqliy hujum» interfaol metodidan foydalangan holda darsni olib borish. Aqliy hujum metodi, asosan, o'quvchilarni guruhlariga ajratilgan holda olib boriladi. Mazkur metodni qo'llashda guruhdagi o'quvchilar soni 10 yoki 15 ta o'quvchidan oshmasligi zarur. Bu metod o'quvchilarda birgalikda ishlash ko'nikmasini shakllantirish va yangicha fikr, g'oyalarni o'quvchilar ongida paydo bo'lishiga yordam beradi. Masalan, Barcha guruhga

Abdulla Avloniy bo'yicha bitta savol berasiz va ushbu savolga hamma guruhdan alohida javob olasiz, lekin o'quvchilar o'rtasida o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni shakllantirmasligingiz, guruhlar o'rtasida adovatni yuzaga chiqarmasligingiz kerak.

«Yalpi fikriy hujum» metodi. Bu metod o'quvchilar o'rtasida o'tilayotgan mavzuga chuqurroq kirish imkonini beradi. Masalan, Abdulla Avloniy hayoti va ijodi haqida qaysi guruh eng yaxshi va ko'p ma'lumotlarni aytadi deb o'rtaga topshiriq tashlaysiz. Bu metodni qo'llayotganda o'quvchilarni aniq ma'lumotlar aytayotganligiga va o'quvchilarning o'z fikrini yaxshi chiqara olayotganligiga o'qituvchi e'tibor berishi kerak bo'ladi.

«Tarmoqlar» metodi. Ushbu metodning vazifasi o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini yaxshilash, ularni fikrlash doirasini keygaytirishdir.

Mazkur metod doirasida Abdulla Avloniyning «Ikkinchi muallim» asaridagi ikki do'st hikoyasidan namuna:

Chin do'st

Iki odam bir-biriga do'st bo'ldilar chunon,
 Bir nafas ayrilmas erdi bir - biridan iki jon.
 Maslahat birla safar qilmoqni aylab ixtiyor,
 Bo'ldilar sahro tamoshasi uchun bir kun ravon.
 Yo'lda bir daryodan o'tmak to'g'ri keldi do'stlara,
 O'lturub bir kemaga ketmoqda erdilar hamon.
 Bir zamon to'lqun kelib ul kemani qildi xarob,
 Ul iki o'rtoq yiqildilar suv uzra nogahon [1; 195-b].

Dastlab ushbu she'rni o'quvchilarga ifodali qilib o'qitish zarur. Negaki, bu orqali o'qituvchi o'quvchilarning nutqini va savodxonlik darajasini yanada oshishi imkonini beradi. Keyingi jarayon esa o'quvchilar orasidan ikki kishini chiqargan holatda bu hikoyani ikki do'st misolida tahlil qilish kerak. Bu usul darsni hayot bilan bog'lash deyiladi va ushbu usuldan foydalanish hikoyaning o'quvchilar ongida yaxshiroq chiqish imkonini beradi.

Suv yuzinda ul zamon ketmakda edilar oqib,
 Suvchilar keldilar ushlab olg'ali suvdan amon.
 Ul iki do'stning birini tutsa, suvchig'a dedi:
 Qo'y mani, avval borub, do'stumni qutqar beziyon.
 Suvchi borub ushlasa o'rtoq'ini,
 Ul ham aylar do'st qutulsin deb fig'on.
 Ko'rdingizmi, ey suchuk o'g'lonlarim,
 Do'stlig'idan bu siza bir doston [1; 195-b].

Hikoyaning bu qismiga kelganda o'qituvchi tomonidan o'quvchilar o'rtasida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning barchasidan shu ikki do'st o'rnida sen bo'lganingda nima qilarding yoki bu ikki do'st juda natog'ri ish tutdi, sen nima qilgan bo'larding degan savollar bilan o'quvchilarga yuzlanishi kerak. Bu usul o'quvchilar o'rtasida fikrlashni yanada o'stirishga va tezkor hozirjavoblikka o'rgatishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi globallashuv zamonida yoshlarning ma'nan yuksak va jismonan sog'lom bo'lib ulg'ayishi har qachongidan muhim hisoblanadi.

Ushbu jarayonda o'quvchilarga jadid adabiyotining namoyondalari va ularning asarlari bilan tanishtirish ularni dovyurak, Vatanini sevadigan yoshlarni tarbiyalashda juda qo'l keladi va bu jadidchilar orasida Abdulla Avloniyning pand-nasihatga yo'g'rilgan fikrlaridan o'quvchilarni bahramand etib borish bolalar ta'limi va tarbiyasida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi. **Zero, najot ilmda, najot muallimda!**

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik) T: «Sharq», 2020.
2. <https://mirziyo.uz/oz/bolalarimiz-qalbining-chinakam-memori-muhandisi-oqituvchilardir/>
3. Qalandarova D, Jo'rayev O. Abdulla Avloniy –mohir dramaturg va tarjimon. “Turkiy xalqlar adabiyoti: adabiy aloqalar, adabiy ta'sir va tarjima” Toshkent: 2022. 715-718-b.
4. Qalandarova D, Jo'rayev O. Abdulla Avloniy – o'zbek ma'rifatchiligining asoschisi. “Pedagogical sciences and teaching methods” Copenhagen “Science Edition” Volume1, Issue 13. May 2022. B. 113-116.
5. Qalandarova D, Jo'rayev O. “Yusuf va Zulayho dostonining poetik talqini”. “Pedagogical sciences and teaching methods”, Berlin 13 June 2022. B.129-132.
6. Qalandarova D, Jo'rayev O. Asarlarga ko'chgan tarix. TURKEY International scientific-online conference: “Theory and Analytical Aspects of Recent Research” Part 5, Issue 1 MAY 31st. B-208-213.
7. Juraev Oybek. Abdulla Avlani and the National Independence Movement. International Journal on Integrated Education. Volume 5, Issue 11 | Nov -2022. B-397-400.
8. Алимova З. Каландарова Д. Воспитание детей в духе национальных традиций и ценностей в дошкольных образовательных учреждениях. Интернаука М.:2020. С. 30-35.
9. Imomov M, Alimova Z, Arzikulova S, Alikulova M, Kobilova A. The Importance of Interactive Methods and Logical Games in Preparing Students for Professional Pedagogical Activities. Journal of Positive School Psychology. 2022, Vol. 6, No. 11, <http://journalppw.com>. P. 1293-1296.

10. Alimova Z. Rasulova I., Xomutjonova F. The formation of the psyche of preschool children through physical education and sports. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019. ISSN 2056-5852. Progressive Academic Publishing, UK Page 168 www.idpublications.org. P. 168-172.
11. Alimoma Z. Education of Children through National Mobile Games in Preschool Educational Institutions. Impact factor jurnal 2/1320. Vol 11, issue 5, May 2021. *Academicia an international multidisciplinary research journal*. P. 486-490.
12. Alimova Z. Organization of Non-State Preschool Educational Organizations and Licensing of Their Activities. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ)* ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 1, Jan. 2022. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/1014>. P. 268-272.
13. Kalandarova D. *Journal of Positive School Psychology* 2022, Vol. 6, No. 9, <http://journalppw.com>. P. 4395-4398.